«TASDIQLAYMAN»
“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Strategiya bosh direktori:
B.Rakhmatov

«2» noyabr 2026 y.
№ 743

Namangan shahridagi 36 ta avtobus monitorlarida bank reklama roliklarini joylashtirish bo‘yicha
TEXNIK TOPSHIRIQ

T/r	Talablar ro‘yxati	Talablar mazmuni
1.	Buyurtmachi	“Biznesni Rivojlantirish Banki” ATB
2.	Xizmat turi	Namangan shahri bo‘ylab yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarida qatnovchi 36 ta avtobusning salonida o‘rnatilgan monitorlarda bank mahsulotlari va xizmatlariga oid reklama roliklarini namoyish etish.
3.	Buyurtmachi manzili	Namangan shahri, Dashtbog‘ MFY, A. Navoiy ko‘chasi, 70-A uy
4.	Moliyalashtirish manbai	Bankning o‘z mablag‘lari.
5.	Texnik talablar	Joylashtirish hududi: Namangan shahri. Reklama qamrovi: amaldagi yo‘lovchi tashish yo‘nalishlarida qatnovchi 36 ta avtobus. Ijrochi xizmat boshlanishidan oldin avtobuslarning davlat raqamlari va qatnov yo‘nalishlari ko‘rsatilgan ro‘yxatni Buyurtmachiga taqdim etishi lozim. Reklama roligi davomiyligi: 10 soniya. Namoyish chastotasi: har bir avtobusda kuniga kamida 300 marta. Bir avtobusdagi bir nechta monitorda bir vaqtda namoyish etilgan rolik bitta namoyish deb hisoblanadi. Video formati: tomonlar nisbati 16:9, tasvir aniqligi kamida HD — 1280 × 720 piksel. Rolik ekran nisbatlari buzilmagan, tasviri cho‘zilmagan va matnlari kesilmagan holda namoyish etilishi lozim. Tayyor reklama roligi Buyurtmachi tomonidan taqdim etiladi.

6.	Bajarilgan ish va xizmatlarni qabul qilish	Ijrochi tomonidan bajarilgan ish va xizmatlar topshirish-qabul qilish dalolatnomalari taqdim etilib, ikki tomonlama imzolangan paytdan bajarilgan hisoblanadi.
7.	Yetkazib berish muddati	Shartnoma imzolangan kundan boshlab 100 kalendar kuni (Roliklarni tekshirish va 3 oy davomida joylashtirish)
8.	To‘lov shartlari	Shartnomaning 100% miqdori buyurtmachi tomonidan xizmatni qabul qilish-topshirish dalolatnomasi imzolangan kundan boshlab 5 bank kuni ichida to‘lab beriladi.

kelishuvchilar: S.Niyazov

https://hujjat.brb.uz/?pin=lR69dN96&id=38e7d6f5-9009-49ed-8dd9-97c27b1ee10b